

## XVI–XIX YUZ YILLIKLARDA O'RTA OSIYO XONLIKHLARI VA XITOY O'RTASIDAGI RAQOBATNING VUJUDGA KELISH TARIXI

Rustamboyev Islomjon Doniyor o‘g‘li

Oriental universiteti Tarix kafedrasи o‘qituvchisi.

[islomjonrustamboyev@gmail.com](mailto:islomjonrustamboyev@gmail.com)

Murodjonova Gulziyoda Murodjon qizi

Oriental universiteti Tarix fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15623564>

**Annotatsiya.** Davlatlar o’rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar rivojlanib borgani sari xalqlar o’rtasidagi aloqalar ham mustahkamlanib boradi. Qadimda mavjud bo’lgan Buyuk ipak yo’li ham shunday aloqalar natijasida vujudga kelgan. Ushbu maqolada, O’rta Osiyo va qadimgi Xitoy aloqalari rivojlanishi, sharq va g’arbni bog’lab turuvchi Buyuk Ipak yo’li vujudga kelish tarixi haqidagi ma’lumotlarga egabo’lasiz. Shuningdek, O’rta osiyo va Xitoy munosabatlari doimo tinchlik yo’li bilan olib borilmagan, ular o’rtasidagi harbiy to’qnashuvlar ham sodir bo’lgan. Shunga qaramasdan, ular o’rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar to’xtovsix davom etgan.

**Kalit so’zlar:** Xitoy, O’rta Osiyo, Davan, elchilik, Ipak yo’li, Ming sulolasi, Muhammad Alixon.

**Аннотация.** По мере развития культурных и экономических связей между государствами укреплялись и отношения между народами. Великий шелковый путь, существовавший в древности, также возник в результате таких взаимодействий. В данной статье вы получите информацию о развитии отношений между Центральной Азией и Древним Китаем, а также об истории возникновения Великого шелкового пути, соединяющего Восток и Запад. Следует отметить, что отношения между Центральной Азией и Китаем не всегда были мирными — между ними происходили и военные столкновения. Тем не менее, торгово-экономические связи между этими регионами продолжались без остановки.

**Ключевые слова:** Китай, Центральная Азия, Давань, дипломатия, Шелковый путь, династия Мин, Мухаммад Алихан.

**Abstract.** As cultural and economic ties between states have developed, so too have the relationships between peoples strengthened. The ancient Silk Road emerged as a result of such connections. This article provides information about the development of relations between Central Asia and ancient China, as well as the historical origins of the Great Silk Road that linked East and West. It is also noted that the relations between Central Asia and China were not always peaceful—military conflicts occurred between them as well. Nevertheless, their trade and economic relations continued uninterrupted.

**Keywords:** China, Central Asia, Dayuan, diplomacy, Silk Road, Ming dynasty, Muhammad Alikhan.

O’rta Osiyo geografik jihatdan juda qulay yerda, savdo sotiq va diplomatic aloqalarni yuritish va keng ko’lamli madaniy markaz hududda joylashgan edi. Uning chegaralari sharqda Xitoy, g’arbda Kaspiy dengizi, janubda Eron va Hindiston, shimolda esa bepoyon dashtliklar

bilan chegaradosh bo‘lgan. Shunday ekan, bu hudud, o‘z davrining quadratli imperiyalari bilan chegaralangan va ular bilan dam do‘stlik va savdo to‘g‘risida, dam urush va suluq haqida o‘zaro aloqalar olib borgan. Biz bu aloqalar tarixini tahlil qilar ekanmiz, bunda Xitoy bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Xo‘sh, O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasida dastlabki aloqalar qachonda yuzaga kelgan? Biz olingan o‘tgan davr kattaligi, aloqalarning keng ko‘lamli bo‘lganligi uchun alohida qadimgi davr misolida o‘rganishni ma‘qul topdik<sup>1</sup>.

O‘rta Osiyo va Xitoy xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining tarixi miloddan avvalgi V-IV yuz yilliklarga borib taqaladi. Xususan, Davan (Farg‘ona)-Xitoy munosabatlari qachon boshlanganligi aniq emas. Bu munosabatlar juda qadimdan boshlangan bo‘lishi mumkin.

Sababi, tadqiqotchilar mil. avv IV-III ming yilliklarda cho‘l va dasht atrofida vujudga kelgan madaniyat O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Mo‘giliston, Shimoliy Xitoyda umumiy birlikka ega ekanligi aytildi.

O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi tarixiy aloqalar ming yillar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan. Ipak yo‘li orqali boshlangan bu aloqalar faqat iqtisodiy hamkorlik bilan cheklanib qolmay, balki siyosiy, diplomatik va madaniy jihatdan ham chuqur o‘zaro ta’sir ko‘rsatgan. XVI-XIX yuz yilliklar esa aynan diplomatik munosabatlarning yanada faollashgan davri sifatida ajralib turadi. Bu davrda O‘rta Osiyoda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllanib, tashqi siyosatda Xitoy imperiyasi bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yganlar. Shu bilan birga, Xitoyda esa Ming (1368–1644) va undan keyin Qing (1644–1912) sulolalari hukmronlik qilgan bo‘lib, ular O‘rta Osiyo davlatlari bilan diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga intilganlar. Bu maqolada bir necha asrlar davomida O‘rta Osiyo–Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning asosiy bosqichlari, ularning mazmuni va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi<sup>2</sup>.

XVI yuz yillik – bu davrda O‘rta Osiyodagi eng yirik siyosiy kuchlardan biri bo‘lgan Buxoro xonligi Xitoyning Ming sulolasini bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Buxoro xonlari o‘z savdogarlari va elchilarini Xitoya yuborgan, bu orqali ikki davlat o‘rtasida savdosotiqa siyosiy aloqa mustahkamlangan. Ming sulolasining tashqi siyosatida markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarga alohida e’tibor berilgan, ayniqsa, savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minalash va chegaradosh hududlarda barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda elchilik missiyalarining yuborilishi, sovg‘a-salomlar almashinuvni va o‘zaro maktub almashish diplomatik protokolning ajralmas qismi bo‘lgan<sup>3</sup>.

XVII yuz yillik esa O‘rta Osiyodagi yangi siyosiy kuch – Qo‘qon xonligining shakllanishi va uning tashqi siyosatga faol kirib kelishi bilan ajralib turadi. Qing sulolasini hukmronligidagi Xitoy esa Sharqiy Turkiston hududi orqali Qo‘qon bilan bevosita aloqada bo‘lgan. Qo‘qon xonlari tomonidan Xitoya yuborilgan elchilar savdo va siyosiy masalalarni muhokama qilganlar.

Ayniqsa, Yettisuv va Qoshg‘ar vohalaridagi siyosiy jarayonlar Xitoy–Qo‘qon munosabatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

<sup>1</sup> Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент. 2007

<sup>2</sup> Berdimurodov A. Indiamanova Sh. Buyuk ipak yo‘li. Тошкент. 2017

<sup>3</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008

Qing imperiyasi Sharqiy Turkistonda o‘z hukmronligini mustahkamlashga urinarkan, Qo‘qon xonligi bu hududlarda o‘z ta’sir doirasini saqlab qolishga harakat qilgan. Natijada, bu ikki kuch o‘rtasida muvozanatlilik diplomatik siyosat yuritilgan. Qo‘qon xonligi 1709-1876 yillarda hukmronlik surgan bo‘lib, o‘zining yuksalish davrlarida hozirgi Tojikiston Respublikasining shimoli va sharqi, Qozog‘iston Respublikasining janubiy hududlari va Qirg‘iziston Respublikasi hududlarini egallagan. Sin imperiyasi 1759-yilda Sharqiy Turkistonni bosib olishi bilan, xonlik sharqda Xitoy bilan chegaradosh davlatga aylangan. Sharqiy Turkiston bosib olingandan so‘ng, uning hukmdori – Sarimsoq xo‘ja avlodlari Qo‘qon xonligi hududida panoh topgan. Xitoy hukmdorlari Sarimsoq xo‘ja avlodlari Sharqiy Turkiston hududida paydo bo‘lmashigi, ularni Qo‘qon xonligi saqlab turilishi evaziga Qo‘qon xonligiga savdo munosabatlarda ancha imtiyozlar bergen. Masalan, 1809-yilgi Xitoy imperatori Szyatsinning farmoniga ko‘ra, shu yili Qashqarga keltirilgan Qo‘qon xonligi tovarlari bojdani to‘liq ozod qilingan, kelgusida keladigan tovarlar uchun bojlar ikki marotaba tushirilgan. Biroq, Sarimsoqxo‘janing o‘g‘li Jahongirxo‘ja 1822-yilda Qo‘qon xonligidan qochib ketishga muvaffaq bo‘ladi, 1826-1827 yillarda Sharqiy Turkistonda qo‘zg‘olon ko‘taradi, qo‘zg‘olonchilarini qo‘llab quvvatlash uchun Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842 yillar) 1826-yilda Qashqarga qo‘sish tortib boradi, biroq tezda orqaga qaytadi. Jahongirxo‘janing Sharqiy Turkistondagi hukmronligi 9 oy davom etadi va Xitoy armiyasi tomonidan bostiriladi.

XVIII yuz yillik davomida Xiva va Buxoro xonliklari ham Xitoy bilan aloqalarini davom ettirganlar. Ayniqsa, Qing imperiyasining Sharqiy Turkistondagi faol islohotlari va u yerda musulmon aholi bilan munosabatlar O‘rta Osiyodagi musulmon xonliklarini befarq qoldirmagan.

Xonliklar diniy va madaniy jihatdan o‘z birodarlarining holatidan xabardor bo‘lishga va Xitoy bilan bu borada muhokamalar olib borishga intilganlar. Shu davrda Buxoro va Xiva xonliklari tomonidan yuborilgan ayrim elchilik missiyalari Qing imperiyasi tomonidan qabul qilingan, biroq bu aloqalar avvalgidek muntazam bo‘lmagan. Sababi, XIX yuz yillikning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyaning O‘rta Osiyodagi harbiy ekspansiyasi kuchayib, bu mintaqaning tashqi siyosatiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshlagan<sup>4</sup>.

Ushbu diplomatik munosabatlarning asosiy shakli elchilik missiyalari bo‘lgan. Elchilar odatda davlat rahbarining maxsus topshirig‘i bilan yuborilgan, ular savdo masalalari, siyosiy kelishuvlar, tinchlikni mustahkamlash va ba’zida harbiy yordam masalalarini muhokama qilganlar. Elchilar ko‘pincha o‘zlarini bilan sovg‘a-salomlar, qo‘lyozma maktublar va savdo karvonlarini ham olib ketganlar. Elchilik protokoli qat’iy tartibda olib borilgan, Xitoy saroyida esa bu elchilar “chet el vakillari” maqomida qarshi olingen. Ular saroy protokollariga muvofiq taqdimotlar o‘tkazib, imperator huzurida nutq so‘zlash imkoniga ega bo‘lganlar<sup>5</sup>.

Diplomatik munosabatlarda diniy va madaniy omillar ham muhim rol o‘ynagan. O‘rta Osiyo musulmon xonliklari Xitoydagagi musulmon aholi holatidan xabardor bo‘lishga harakat qilganlar. Xitoy esa o‘z navbatida, O‘rta Osiyodagi siyosiy vaziyatni o‘rganib, o‘z manfaatlari doirasida muloqot olib borgan. Shu sababli diplomatik munosabatlar faqat siyosiy emas, balki diniy-madaniy axborot almashinuvni sifatida ham xizmat qilgan.

<sup>4</sup> Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент. 2007

<sup>5</sup> Berdimurodov A. Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo’li. Тошкент. 2017

Umuman olganda, XVI-XIX yuz yilliklarda O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar murakkab, lekin muhim jarayonlar asosida shakllangan.

Bu davrda elchilik missiyalari, savdo aloqalari, hududiy xavfsizlik masalalari va madaniy hamkorlik diplomatik aloqalarning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etgan. Ayniqsa, bu munosabatlar orqali Ipak yo‘lining tarixiy ahamiyati saqlanib qolgan, madaniyatlararo muloqot davom etgan<sup>6</sup>.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o‘rtasidagi strategik hamkorlik aynan o‘sha tarixiy aloqalarning davomchisi sifatida baholanmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, diplomatiya nafaqat siyosiy manfaatlar, balki madaniy va ijtimoiy yaqinliklarni ham mustahkamlovchi kuchli vositadir.

Muxtasar qilib aytganda, XVI–XIX yuz yilliklarda O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar ko‘p qirrali va tarixiy jihatdan muhim jarayonlar asosida shakllangan.

Ushbu munosabatlar faqat siyosiy yoki iqtisodiy tusda bo‘lmay, balki madaniy, diniy va geosiyosiy omillarni ham o‘z ichiga olgan. Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining Xitoy imperiyalari – Ming va Qing sulolalari bilan olib borgan elchilik missiyalari, savdo aloqalari va maktub almashinuvi o‘zaro ishonch va manfaatlarga asoslangan bo‘lib, ular Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan keng ko‘lamli muloqotlarning davomi sifatida namoyon bo‘lgan.

Sharqiy Turkistonda yuz bergen voqealar, xususan Sarimsoqxo‘ja avlodlari va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi aloqalar, Xitoy tomonidan Qo‘qonga berilgan iqtisodiy imtiyozlar, shuningdek, elchilar vositasida olib borilgan muzokaralar o‘sha davr diplomatiyasining murakkab, ammo barqaror shaklini ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo davlatlari Xitoydagagi musulmon aholi taqdiriga befarq bo‘lmagan holda diniy birdamlik asosida ham muloqot olib borganlar.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, bu diplomatik aloqalar nafaqat o‘sha davr siyosiy muvozanatini saqlab qolgan, balki madaniy axborot almashinuvi va xalqaro savdoning rivojlanishiga ham turki bergen. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o‘rtasidagi strategik hamkorlik aynan o‘sha tarixiy asoslar negizida shakllanmoqda.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi tarixiy diplomatik aloqalarni chuqur o‘rganish, nafaqat o‘tmishni anglash, balki hozirgi zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni to‘g‘ri baholashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Иерусалимская А.А. О северокавказском «Шелковом пути» в раннем средневековье. «Советская археология», 1967. №2.
2. На среднеазиятских трассах Великого шелкового пути. Сборник статей. Ташкент, 1990.
3. Ҳайдарбек Назирбекович Бобобеков. Қўқон тарихи. Тошкент: «фан» 1996. 240 6.
4. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент. 2007
5. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008

<sup>6</sup> На среднеазиятских трассах Великого шелкового пути. Сборник статей. Ташкент, 1990.

6. Бабаджанов, Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия / Б. М. Бабаджанов; рец. С. У Каримова, Н. И. Тошев; Nihu islamik area studies (Tokyo university), Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. - Ташкент; Токио: Yangi nashr, 2010. - 744 с
7. Мадрахимов Зоҳид. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари тарихи: монография / З. Мадрахимов. -Тошкент: «Yangi nashr», 2014. - 176 б.
8. Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). -Т: 2014. - 1491 б.
9. Berdimurodov A. Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo‘li. Тошкент. 2017
10. Қўлдашев Шерали. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар [Матн] /нашрга тайёрловчи Шерали Қўлдашев. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 256 б.